



Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **25,9** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,8** mingtaga kamaygan yoki **79,2** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,9** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-martida **1,2** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,4** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
6161	Qarshi sh.	5369
1765	Shahrisabz sh.	1533
1845	G'uzor	1228
1452	Dehqonobod	996
2348	Qamashi	1725
2128	Qarshi	1848
2656	Koson	1805
2342	Kitob	1752
1422	Mirishkor	995
1054	Muborak	868
1678	Nishon	1380
1596	Kasbi	1249
860	Ko'kdala	745
1664	Chiroqchi	1344
1407	Shahrisabz	1291
2310	Yakkabog'	1763

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **25891** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1165** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Qarshi shahrida **5369** tani yoki jamiga nisbatan **20,7 %** ni tashkil etdi.

1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*


Qarshi sh.	18,1
Mirishkor	16,9
Muborak	14,8
Nishon	14,6
Koson	11,9
Qarshi	10,8
Shahrisabz sh.	10,5
Kitob	10,1
Dehqonobod	9,5
Yakkabogʻ	9,5
Kasbi	9,4
Koʻkdala	9,1
Shahrisabz	9,1
Gʻuzor	8,5
Qamashi	8,2
Chiroqchi	7,9

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- aprel holatiga, birlikda



2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **10,9** birlikni tashkil etib, bu koʻrsatkich 2023- yilga nisbatan **2,5** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori koʻrsatkich Qarshi shahrida **18,1** birlik, Mirishkor tumanida **16,9** birlik, Muborak tumanida **14,8** birlik, Nishon tumanida **14,6** birlik va Koson tumanida **11,9** birlikka yetdi.



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarini qoʻshgan holda)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich



Qarshi shahri
– 18,1 birlik.



O'rta ko'rsatkich




Kitob tumani
– 10,1 birlik.



Eng past ko'rsatkich



Chiroqchi tumani
– 7,9 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **18,1** birlik, Mirishkor tumanida **16,9** birlik, Muborak tumanida **14,8** birlik, Nishon tumanida **14,6** birlik, Koson tumanida **11,9** birlik, Qarshi tumanida **10,8** birlik, Shahrisabz shahrida **10,5** birlik, Kitob tumanida **10,1** birlik, Dehqonobod **9,5** birlik va Yakkabog' tumanida **9,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Qarshi shahri

18,1

Muborak tumani

14,8

Koson tumani

11,9

Mirishkor tumani

16,9

Nishon tumani


14,6

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.		2024- y.
256	Qarshi sh.	222
92	Shahrisabz sh.	65
153	G'uzor	43
114	Dehqonobod	18
125	Qamashi	77
139	Qarshi	119
170	Koson	83
125	Kitob	69
97	Mirishkor	46
59	Muborak	28
183	Nishon	64
191	Kasbi	65
88	Ko'kdala	65
78	Chiroqchi	51
92	Shahrisabz	58
181	Yakkabog'	92


2024- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – **19,1 %**, Qarshi tumani – **10,2 %**, Yakkabog' tumani – **7,9 %**, Koson tumani – **7,1 %**, Qamashi tumani – **6,6 %**, Kasbi, Kitob, Ko'kdala tumanlari – **5,6 %**, Nishon tumani – **5,5 %**, Shahrisabz tumani – **5,0 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-marti davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **9331** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **2799** (yoki **30,1 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3073** (yoki **32,9 %**) ta, sanoat sohasida – **1465** (yoki **15,7 %**) ta, xizmatlar sohasida – **1544** (yoki **16,5 %**) ta va qurilish sohasida – **450** (yoki **4,8 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **57,6** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,7** punktga ko'aygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,8** % ni, chakana savdoda **95,6** % ni, yo'lovchi aylanmasida **95,3** % ni, yo'lovchi tashishda **90,9** % ni, yuk tashishda **87,2** % ni, qurilishda **73,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1743,6** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**294,7** mlrd. so'm), Mirishkor (**237,9** mlrd. so'm), Chiroqchi (**144,1** mlrd. so'm), Kasbi (**140,9** mlrd. so'm) va Qarshi (**140,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Dehqonobod tumanida (**39,3** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




-150 50 250 450 650 850

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko'kdala tumani (100,0 %), Shahrisabz shahri (79,2 %), Chiroqchi tumani (69,9 %), Mirishkor tumani (67,0 %), Shahrisabz tumani (47,9 %), Qamashi tumani (44,5 %), Muborak tumani (44,0 %), Yakkabog' tumani (39,9 %), Koson tumani (35,6 %), va Kitob tumani (26,0 %) tashkil etdi.

Ko'kdala	100,0
Shahrisabz sh.	79,2
Chiroqchi	69,9
Mirishkor	67,0
Shahrisabz	47,9
Qamashi	44,5
Muborak	44,0
Yakkabog'	39,9
Koson	35,6
Qarshi sh.	34,9
Kitob	26,0
Kasbi	24,9
Qarshi	23,6
Dehqonobod	17,7
G'uzor	5,0
Nishon	2,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	73,7	95,0
Shahrisabz	54,1	93,4
Chiroqchi	124,9	73,5
Ko'kdala	10,5	100,0
Kasbi	47,6	95,1
Nishon	59,5	60,9
Muborak	47,4	34,7
Mirishkor	28,0	93,8
Kitob	125,3	98,4
Koson	113,0	94,3
Qarshi	130,9	96,8
Qamashi	42,5	97,0
Dehqonobod	42,3	95,6
G'uzor	143,0	64,3
Shahrisabz sh.	82,7	75,8
Qarshi sh.	407,3	63,6

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1532,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **73,9** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **113,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (**407,3** mlrd. so'm), G'uzor (**143,0** mlrd. so'm), Qarshi (**130,9** mlrd. so'm), Kitob (**125,3** mlrd. so'm), Chiroqchi (**124,9** mlrd. so'm), Koson (**113,0** mlrd. so'm), hamda Yakkabog' (**73,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3986,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **46,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **359,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Nishon tumani (**2271,3** mlrd. so'm), G'uzor tumani (**216,4** mlrd. so'm), Qarshi shahri (**161,0** mlrd. so'm), Chiroqchi tumani (**160,6** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**159,2** mlrd. so'm), Yakkabog' tumani (**156,7** mlrd. so'm), Muborak tumani (**144,3** mlrd. so'm), Kitob tumani (**133,7** mlrd. so'm) hamda Koson (**132,9** mlrd. so'm) tumani larida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **3609,9** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,8** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **103,6** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Kitob (**319,5** mlrd. so'm), Chiroqchi (**316,5** mlrd. so'm), Koson (**310,5** mlrd. so'm), Shahrisabz (**276,2** mlrd. so'm), Dehqonobod (**254,8** mlrd. so'm) hamda Qarshi (**254,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	240,2	97,9
Shahrisabz	276,2	99,0
Chiroqchi	316,5	99,2
Ko'kdala	180,9	98,9
Kasbi	249,0	99,5
Nishon	223,6	98,1
Muborak	195,7	98,6
Mirishkor	202,2	98,9
Kitob	319,5	99,5
Koson	310,5	99,5
Qarshi	254,2	98,5
Qamashi	226,8	98,9
Dehqonobod	254,8	98,6
G'uzor	270,5	98,0
Shahrisabz sh.	18,7	99,9
Qarshi sh.	70,6	97,5

hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4783,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **95,6 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **108,4 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Yakkabog'	255,0	98,8
Shaxrisabz	152,5	85,9
Chiroqchi	369,3	98,0
Ko'kdala	156,5	99,0
Kasbi	196,3	99,1
Nishon	186,9	99,2
Muborak	146,9	99,5
Mirishkor	166,6	99,2
Kitob	255,0	98,0
Koson	390,3	94,5
Qarshi	182,3	99,1
Qamashi	343,2	99,1
Dehqonobod	162,6	99,0
G'uzor	192,8	95,3
Shahrisabz sh.	402,7	98,6
Qarshi sh.	1 224,9	90,6

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**1224,9** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**402,7** mlrd. so'm), Koson (**390,3** mlrd. so'm), Chiroqchi (**369,3** mlrd. so'm), Qamashi (**343,2** mlrd. so'm), Yakkabog' va Kitob (**255,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2019 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm



hajmi, mlrd. so'mda
 ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Qarshi sh.	536,8
Koson	318,6
Kitob	299,6
Qamashi	261,3
Shahrisabz	254,8
Qarshi	249,0
Muborak	220,7
Yakkabog'	218,3
Mirishkor	212,2
Kasbi	189,7
Nishon	165,2
G'uzor	154,4
Chiroqchi	133,7
Shahrisabz sh.	117,7
Dehqonobod	115,1
Ko'kdala	67,6

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3514,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **110,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**536,8** mlrd. so'm), Koson tumani (**318,6** mlrd. so'm), Kitob tumani (**299,6** mlrd. so'm), Qamashi tumani (**261,3** mlrd. so'm), Shahrisabz tumani (**254,8** mlrd. so'm), Qarshi tumani (**249,0** mlrd so'm), Muborak tumani (**220,7** mlrd so'm) va Yakkabog' (**218,3** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-mart oylarida)

1486,7	Savdo xizmatlari	42,3
1039,2	Transport xizmatlari	29,6
192,7	Shaxsiy xizmatlar	5,5
198,5	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	5,6
162,4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,6
118,0	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4
106,4	Ijara xizmatlari	3,0
31,7	Boshqa xizmatlar	0,9
49,6	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4
64,2	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,8
32,3	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,9
17,7	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,5
15,4	Moliyaviy xizmatlar	0,4

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida **-42,3 %** (1486,7 mlrd. so'm), transport xizmatlarida **-29,6 %** (1039,2 mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda - **5,5 %** (192,7 mlrd. so'm) hamda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida - **5,6 %** (198,5 mlrd. so'm) ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,4 %** (15,4 mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **22,3** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **18,4** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yakkabog'	185,0	5,4
Shaxrisabz	1057,9	33,3
Chiroqchi	603,1	76,8
Ko'kdala	799,9	100,0
Kasbi	1956,3	6,8
Nishon	82,4	0,3
Muborak	886,2	75,9
Mirishkor	1050,9	100,0
Kitob	4763,6	99,6
Koson	3188,8	36,3
Qarshi	1646,4	6,3
Qamashi	1683,5	80,8
Dehqonobod	854,4	100,0
G'uzor	898,4	66,2
Shahrisabz sh.	1158,5	100,0
Qarshi sh.	1518,5	24,0

hajmi, ming. AQSH dollar

ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Ko'kdala, Dehqonobod va Mirishkor tumanlarida – **100,0** %, Shahrisabz shahrida – **100** %, Kitob tumanida – **99,6** % Qamashi tumanida – **80,8** %, Chiroqchi tumanida – **76,8** %, Muborak tumanida – **75,9** %, G'uzor shahrida – **66,2** %, Koson tumanida – **36,3** %, ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Nishon tumanida – **0,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **122,8** million AQSH dollarini yoki jami importning **72,4** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mirishkor, Yakkabog', Chiroqchi va Ko'kdala tumanlarida – **100** %, Shahrisabz shahrida – **100** %, Qarshi shahrida – **98,6** %, Koson tumanida – **96,3** %, G'uzor tumanida – **79,8** % hamda Dehqonobod tumanida – **77,5** % ni tashkil etdi.


Nishon	0,8
Qamashi	2,1
Kasbi	6,7
Qarshi	8,5
Shaxrisabz	49,7
Kitob	68,3
Muborak	73,2
Dehqonobod	77,5
G'uzor	79,8
Koson	96,3
Qarshi sh.	98,6
Ko'kdala	100,0
Shahrisabz sh.	100,0
Chiroqchi	100,0
Yakkabog'	100,0
Mirishkor	100,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,2 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,9 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **71,7 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **96,2 %** ni tashkil qildi.



**Yo‘lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **90,9 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,7 %** ni tashkil qildi.




**Yo‘lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **101,4 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil I- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1112** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **620 (55,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **399 (35,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **8,4 (9,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **36,2 % (403 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,7 % (319 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,0 % (144 ta)** sanoatda – **12,5 % (139 ta)**, qurilishda – **9,6 % (107 ta)**, ni tashkil etdi.

2024- yil I- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

249	Qarshi sh.	22,4
88	Shahrisabz sh.	7,9
34	G'uzor	3,1
34	Dehqonobod	3,1
49	Qamashi	4,4
94	Qarshi	8,5
77	Koson	6,9
82	Kitob	7,4
42	Mirishkor	3,8
45	Muborak	4,0
52	Nishon	4,7
52	Kasbi	4,6
20	Ko'kdala	1,8
66	Chiroqchi	5,9
58	Shahrisabz	5,2
70	Yakkabog'	6,3


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (249 ta), Kitob (94 ta), Shahrisabz shahri (88 ta), Koson (77 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I- choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning I- choragida **405** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragiga kelib esa **620** taga yetgan yoki 2019- yilning I- choragiga nisbatan **215** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **360** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **399** ta yoki **39** taga ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **41** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **93** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **52** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I- choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I- choragida **391** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragiga kelib esa **612** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **221** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I- choragida **369** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragida **315** ta yoki **54** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning I- choragida **75** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **81** tani tashkil etib, **6** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I- choragida **50,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **55,7** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **5,5** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **44,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragida **35,9** % yoki **5,8** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **5,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **8,4** % ga yetgan yoki **3,3** % ga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar I- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I- choragida **46,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **60,7** % ga yetgan yoki 2019- yilning I- choragida nisbatan **13,9** % birlik ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I- choragida **44,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **31,3** % yoki **12,9** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning I- choragida **9,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **8,0** % yoki **1,0** % birlikka kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning I- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **36,0** % ni, xizmatlar sohasida – **28,7** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,9** % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **36,1** % ni, xizmatlar sohasida – **29,3** % ni, sanoat sohasida – **13,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida – **38,7** % ni, xizmatlar sohasida – **25,8** % ni, sanoatda – **12,9** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilanish deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **36,1** % ni, xizmatlar sohasida – **26,5** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,5** % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **35,9** % ni, xizmatlar sohasida – **31,1** % ni, sanoatda – **13,0** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashish deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **35,8** % ni, xizmatlar sohasida – **32,1** % ni, sanoatda – **11,1** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	54,9	36,4	8,7
Band bo'lganlar soni	49,9	42,5	7,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	53,8	38,4	7,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	37,5	54,6	7,9
Raqobat muhiti	57,5	35,9	6,6

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	62,2	33,9	3,9
Band bo'lganlar soni	54,7	41,7	3,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	58,9	36,9	4,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	43,6	52,1	4,3
Raqobat muhiti	62,1	34,4	3,5


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli